



INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA AUTENTIK MANBALARNING O'RNI

Ergashova Dilnoza Muzaffar qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti

Lingvistika yo'nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: @dilnozae372@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu tadqiqot talabalar orasida ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida autentik materiallardan foydalanish samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida eksperimental yondashuv qo'llanilib, o'qish jarayonida Skimming, Scanning hamda tanqidiy o'qish strategiyalarining amaliy tatbiqi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, autentik matnlar talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini ham sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, bu materiallar real hayotga yaqin til muhitini yaratib, o'quvchilarning tilni amaliy qo'llash qobiliyatini mustahkamlaydi.*

KALIT SO'ZLAR: *autentik materiallar, o'qish kompetensiyasi, Skimming, Scanning, tanqidiy o'qish, EFL, o'qish strategiyalari.*

ABSTRACT. *This study investigates the practical application of authentic materials in enhancing English reading competence. An experimental approach was employed to evaluate the effectiveness of reading strategies such as Skimming, Scanning, and Critical Reading in the learning process. The results indicate that the use of authentic texts significantly improves reading skills, increases learners' motivation, and enhances engagement with real-world language use. Furthermore, authentic materials provide a more realistic linguistic environment, contributing to the development of practical language proficiency.*

KEYWORDS: *authentic materials, reading competence, skimming, scanning, critical reading, EFL, reading strategies.*



АННОТАЦИЯ. Данное исследование посвящено изучению практического применения аутентичных материалов для повышения уровня навыков чтения на английском языке. В рамках исследования использовался экспериментальный подход, в ходе которого оценивалась эффективность стратегий чтения, таких как скимминг, сканирование и критическое чтение. Результаты показали, что использование аутентичных текстов значительно улучшает навыки чтения, повышает мотивацию обучающихся и способствует более активному взаимодействию с реальным языковым материалом. Кроме того, аутентичные материалы создают более естественную языковую среду и способствуют развитию практических языковых навыков.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: аутентичные материалы, навыки чтения, скимминг, сканирование, критическое чтение, EFL, стратегии чтения.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrda oliy ta'lim muassasalari oldida talabalarni nafaqat til bilimiga ega, balki madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok eta oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlash vazifasi turibdi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o'qitishda o'qish kompetensiyasi muhim o'rin egallaydi, chunki u nafaqat til strukturalarini o'zlashtirishga, balki tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [Brown, 2001, p. 45]. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchilarni oddiy axborot qabul qiluvchidan faol va strategik o'quvchiga aylantirishni maqsad qiladi [Harmer, 2015, p.78]. Biroq an'anaviy o'quv materiallari real til muhitini to'liq aks ettira olmasligi sababli, gazeta maqolalari, internet matnlari, audio-vizual resurslar va boshqa autentik materiallar dars jarayoniga keng joriy etilmoqda. Bunday resurslar o'quvchilarga tabiiy til ishlatilishini o'rganish bilan birga madaniy kontekstni ham anglash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi autentik materiallarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish asosida Skimming, Scanning va tanqidiy o'qish strategiyalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini eksperimental yondashuv orqali baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari zamonaviy



ta'lim sharoitida autentik resurslarning pedagogik ahamiyatini amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiladi [Gilmore, 2007, p. 101].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqot kvantitativ eksperimental yondashuv asosida amalga oshirildi. Unda o'qish kompetensiyasidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida Pre-test va Post-test usullari qo'llanildi hamda natijalarni solishtirish uchun nazorat guruhi ishtiroki ta'minlandi. Bunday yondashuv strategik o'qitish usullari bilan o'quvchilarning o'qish ko'nikmalari o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida B1–B2 darajadagi 50 nafar talaba tanlab olindi. Ular tasodifiy ravishda ikki guruhga ajratildi: eksperimental guruh (25 nafar) va nazorat guruhi (25 nafar). Bu guruhlar o'rtasida o'qitish jarayonida qo'llanilgan metodlar farqlanib, natijalar solishtirildi. Tadqiqot davomida bir nechta vositalardan foydalanildi. Birinchidan, o'qish kompetensiyasini baholash uchun maxsus testlar ishlab chiqildi. Ushbu testlar talabalarning o'qish tezligi, matnni tushunish darajasi, lug'at boyligi hamda matndan xulosa chiqarish qobiliyatini aniqlashga qaratildi. Pre-test va Post-test natijalari o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni baholash imkonini berdi. Ikkinchidan, ishtirokchilarning autentik materiallarga munosabati, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi hamda raqamli platformalardan foydalanish darajasini aniqlash uchun so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari o'quvchilarning autentik matnlarga bo'lgan qarashlari va ularning o'quv jarayoniga ta'siri haqida qo'shimcha ma'lumot berdi. Eksperimental guruh bilan mashg'ulotlar 13 hafta davomida olib borildi. Dars jarayonida onlayn yangiliklar, ilmiy maqolalar va ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar kabi autentik materiallardan foydalanildi. Materiallarni tanlashda ularning dolzarbligi, tushunarligi, qiziqarliligi va o'quv maqsadiga mosligi asosiy mezon sifatida qabul qilindi [Hedge, 2000, p. 112 & Nuttall, 2005, p. 56]. O'qitish jarayonida talabalar qiyinchiliklarini kamaytirish maqsadida pedagogik qo'llab-quvvatlash (scaffolding) usullari ham qo'llanildi. Bu yondashuv matnni oldindan tushuntirish, yangi so'zlarni izohlash va vazifalarni bosqichma-bosqich bajarishni o'z ichiga oldi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Xususan, eksperimental va nazorat guruhlarini natijalarini solishtirish uchun mustaqil



tanlanma T-testidan foydalanildi. Ushbu tahlil qo'llanilgan o'qitish strategiyalarining samaradorligi haqida aniq ilmiy xulosalar chiqarishga imkon berdi [Ur, 2012, p. 89].

TAHLIL VA NATIJALAR. Pre-test natijalarini tahlil qilish jarayonida eksperimental va nazorat guruhleri o'rtasida o'qish kompetensiyasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar orasida sezilarli statistik farq kuzatilmagan. Bu esa tadqiqot boshlanishida ikkala guruhning til darajasi deyarli bir xil ekanligini ko'rsatadi va keyingi bosqichdagi o'zgarishlarni faqat eksperimental ta'sir natijasi sifatida baholashga asos yaratadi. So'rovnom natijalari ishtirokchilarning autentik materiallarga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini ko'rsatdi. Respondentlarning katta qismi (80% dan ortig'i) autentik matnlar o'qish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq qilishini ta'kidladi. Shuningdek, o'quvchilarning ko'pchiligi til o'rganishda raqamli platformalardan, xususan video va onlayn kontentlardan faol foydalanishini bildirdi. Bu holat ularning zamonaviy raqamli resurslarga tabiiy moslashuvchanligini ko'rsatadi va autentik materiallarning ichki motivatsiyani kuchaytirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Motivatsiyaning oshishi autentik materiallarning nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham boy manba sifatida qabul qilinishiga olib keladi. Natijada, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish ortib, an'anaviy o'quv jarayonida uchraydigan zerikish va sustlik holatlari kamayadi. 13 haftalik o'quv jarayoni yakunida o'tkazilgan Post-test natijalari eksperimental va nazorat guruhleri o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi ($p < 0.01$). Eksperimental guruhda o'rtacha natijalar ancha yuqori bo'lib, bu autentik materiallarga asoslangan o'qitish yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, autentik matnlar bilan ishlash talabalarning so'z boyligini kengaytirish, matnni chuqur tushunish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Qo'llanilgan o'qish strategiyalari o'zaro uyg'unlashgan holda samarali natija bergan [Day & Bamford, 1998, p. 33]. Tezkor o'qish strategiyalari — Skimming va Scanning — talabalarga katta hajmdagi autentik materiallardan asosiy g'oyani tez anglash hamda kerakli ma'lumotni aniqlash imkonini berdi. Bu usullar ayniqsa raqamli matnlar bilan ishlash jarayonida



kognitiv yukni kamaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, tanqidiy o'qish strategiyasi talabalarning yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. Ular matnni tahlil qilish, baholash va turli nuqtai nazardan yondashish orqali chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa o'quvchilarning passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlil qiluvchi shaxsga aylanishiga xizmat qildi. Umuman olganda, autentik materiallar asosida tashkil etilgan o'qish jarayoni va strategik yondashuvlar talabalarning til kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, materiallarni to'g'ri tanlash va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshirdi [Grabe & Stoller, 2011, p. 140 & Gilmore, 2007, p. 110].

XULOSA. Mazkur eksperimental tadqiqot ingliz tilini o'qitish jarayonida autentik materiallardan strategik foydalanish o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar eksperimental guruhda o'qish tushunish, matndan xulosa chiqarish va tahlil qilish ko'nikmalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi. Bu esa autentik materiallarning an'anaviy o'qitish yondashuvlariga qaraganda samaraliroq ekanligini anglatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini zamonaviy raqamli autentik resurslar, jumladan video platformalar va onlayn yangiliklar bilan samarali bog'lash mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlaydi. Skimming, Scanning va tanqidiy o'qish kabi strategiyalarni autentik matnlar bilan birgalikda qo'llash o'quvchilarga tezkor axborotni qabul qilish, muhim ma'lumotni ajratib olish hamda matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini berdi. Bu esa ularni zamonaviy ta'lim talablariga mos, mustaqil va strategik fikrlaydigan o'quvchilarga aylantiradi. Shuningdek, pedagoglar uchun autentik materiallarni tanlashda ularning dolzarbligi, tushunariligi va o'quvchilarning madaniy hamda til tajribasiga mosligi muhim mezon sifatida e'tiborga olinishi kerak. Bu o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda esa sun'iy intellekt asosidagi o'qitish



texnologiyalari va adaptiv ta'lim platformalarining autentik materiallar bilan integratsiyasi imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. New York: Longman.
2. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education.
3. Asilova, G. A. (2018). "Autentik materiallarni tanlash mezonlari va ularning ahamiyati". *Pedagogika jurnali*, 3(2), 45–49.
4. Gilmore, A. (2007). "Authentic materials and authenticity in foreign language learning". *Language Teaching*, 40(2), 97–118.
5. Nuttall, C. (2005). *Teaching Reading Skills in a Foreign Language*. Oxford: Macmillan.
6. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2011). *Teaching and Researching Reading*. Routledge.
7. Day, R. R., & Bamford, J. (1998). *Extensive Reading in the Second Language Classroom*. Cambridge University Press.
8. Hedge, T. (2000). *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford University Press.
9. Ur, P. (2012). *A Course in Language Teaching*. Cambridge University Press.
10. Richards, J. C. (2013). *Curriculum Approaches in Language Teaching*. Cambridge University Press.